Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Saydaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AJRATILAYOTGAN KREDITLARNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

ORCID: 0009-0007-8145-2074

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishida tijorat banklarining o'rni tahlil qilinadi. Tijorat banklari tomonidan sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlariga ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiy faollikni oshirishdagi funksiyasi ochib berilgan. Tadqiqotda bank kreditlari orqali moliyaviy resurslarni real sektor subyektlariga yo'naltirish amaliyoti, mavjud muammolar va institutsional islohotlarning samaradorligi o'rganiladi. Natijalar tijorat banklari kredit siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirchanlik darajasini ko'rsatadi. Muallif, shuningdek, bank tizimining transformatsiyasi va yangi moliyaviy vositalar orqali iqtisodiyotda investitsiyaviy faollikni rag'batlantirish imkoniyatlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, kreditlash, iqtisodiy o'sish, moliyaviy vosita, kichik biznes, investitsiya.

Abstract: This article explores the role of commercial banks in supporting Uzbekistan's sustainable economic growth. It analyzes how lending activities directed towards sectors such as industry, agriculture, services, and particularly small and medium-sized enterprises (SMEs) stimulate economic activity. The study examines the practice of channeling financial resources from banks to the real economy, identifies challenges in credit provision, and evaluates the effectiveness of ongoing institutional reforms. The results highlight the significant influence of credit policy on economic development. The author also discusses the transformation of the banking sector and the prospects of stimulating investment through new financial instruments and technologies.

Key words: Commercial banks, credit, economic growth, financial instrument, small business, investment.

Аннотация: В статье рассматривается роль коммерческих банков в обеспечении устойчивого экономического роста Узбекистана. Проведен анализ влияния кредитной деятельности банков, направленной на промышленность, сельское хозяйство, сферу услуг, а также субъекты малого и среднего бизнеса. Исследование охватывает вопросы эффективного перераспределения финансовых ресурсов в реальный сектор, выявляет существующие проблемы кредитования и оценивает результативность проводимых институциональных реформ. Результаты показывают, что кредитная политика оказывает значительное влияние на экономическую активность. Также раскрываются перспективы трансформации банковской системы и возможности стимулирования инвестиций за счет новых финансовых инструментов.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитование, экономический рост, финансовый инструмент, малый бизнес, инвестиции.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti o'zining tarixiy rivojlanish bosqichlaridan o'tgan va so'nggi yillarda jadal o'sish sur'atlarini qayd etmoqda. Iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida moliyaviy sektorni rivojlantirish va tijorat banklarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Tijorat banklari iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, ular kreditlash jarayonini boshqarish orqali ishlab chiqarish, savdo, xizmatlar, kichik va o'rta biznes va boshqa iqtisodiy tarmoqlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Kreditlash – tijorat banklarining asosiy faoliyatlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy tizimda pul oqimlarini boshqarish va resurslarni taqsimlashning samarali vositasidir. O'zbekistonda tijorat banklari orqali ajratiladigan kreditlar,



asosan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish kabi ijobiy ta'sirlarni ko'rsatmoqda. Xususan, tijorat banklarining kredit siyosati, foiz stavkalari, qarz berish shartlari va risklarni boshqarish yondashuvlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan muhim vositalar hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli alohida e'tibor talab etadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar, yangi qonunlar va moliyaviy bozorlar tizimini modernizatsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

Bu tadqiqotda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning O'zbekistondagi iqtisodiy o'sish, sanoat va xizmatlar sohasidagi o'sish, yangi ish o'rinlarini yaratish va umumiy iqtisodiy barqarorlikni saqlashdagi roli o'rganiladi. Tadqiqotda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlarning samaradorligi, uning kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ta'siri, kreditlash siyosatining o'zgarishi va bank tizimining barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining faoliyati bo'yicha iqtisodchi olimlarning fikrlari ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lib, bu borada turli yondashuvlar mavjud. Xususan, tijorat banklarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, kreditlash siyosati, moliyaviy resurslarni taqsimlash va bank tizimining samaradorligi kabi masalalar yetakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida doimo muhokama qilinib kelinadi.

Masalan, John Maynard Keynes o'zining mashhur "Umumiy nazariya" asarida banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning iqtisodiyotda muhim rol o'ynashini alohida ta'kidlaydi. Keynesning fikricha, banklar tomonidan kredit ajratilishi investitsiyalarning rag'batlantirilishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish hajmining oshishi, ish o'rinlari yaratilishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Unga ko'ra, bank kreditlari iqtisodiyotda pul massasini oshiradi, bu esa ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi [1].

Joseph Schumpeter esa o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida tijorat banklarining innovatsion faoliyatni moliyalashtirishdagi o'rni yoritadi. U banklar kreditlari orqali kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan yangi texnologiyalar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratilishini ta'kidlaydi [2].

O'zbekiston iqtisodiyotida tijorat banklarining roli bo'yicha mahalliy tadqiqotlar ham mavjud. Xususan, iqtisodchi olim Davronov Istamkhuj Olimovich o'z tadqiqotida O'zbekiston tijorat banklari kreditlash tizimini tahlil qilib, banklar kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, yangi investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirishga qaratilgan siyosatni yanada rivojlantirishi lozimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u kreditlash samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun banklarning risklarni boshqarish tizimini mustahkamlash zarurligini qayd etadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va ta'sirini kompleks tarzda o'rganishga qaratilgan. Metodologiyada kvantitativ va sifati tahlil usullarining uyg'unligi asosida tijorat banklarining kreditlash siyosati hamda uning iqtisodiy o'sish, sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kreditlash tizimining samaradorligini baholash, shuningdek, uning iqtisodiy o'sish va sektoral rivojlanishga ta'sirini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, sanoatni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda tijorat banklari orqali ajratilgan kreditlar muhim hissa qo'shmoqda.

O'zbekistonda kreditlash tizimining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali ko'rish mumkin:

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes (KOB) iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Tijorat banklari ushbu sektorni kreditlash orqali korxonalarni rivojlantirishga ko'maklashmoqda. KOB subyektlariga berilgan kreditlar yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sanoatni diversifikatsiya qilish. O'zbekiston iqtisodiyoti asosan neft-gaz va qishloq xo'jaligiga tayanadi. Shu bois tijorat banklari kreditlari yangi sanoat tarmoqlari va biznes yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatini



yaratadi. Kreditlar evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Investitsiya muhitini yaxshilash. Tijorat banklarining kreditlash siyosati O'zbekistonga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita hisoblanadi. Korxona va tadbirkorlar uchun yaratilgan moliyaviy imkoniyatlar xalqaro investorlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu esa iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biridir. Tijorat banklari fermer xo'jaliklariga va qishloq xo'jaligi korxonalariga kreditlar ajratish orqali texnika xaridi, yerga ishlov berish, sug'orish tizimlarini yangilash va mahsulotlarni qayta ishlashda moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatmoqda. Natijada, ushbu sektorning samaradorligi va oziq-ovqat xavfsizligi oshmoqda.

Infratuzilma va qurilish sohasini rivojlantirish. Inflyatsiya va urbanizatsiya jarayonlari fonida infratuzilma va uy-joy qurilishi sektorlari kengaymoqda. Tijorat banklari kreditlari orqali yangi uy-joylar, transport infratuzilmasi, energetika va suv ta'minoti tarmoqlari modernizatsiya qilinmoqda. Bu esa iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Yangi bizneslar va ish o'rinlari yaratish. Kreditlash yangi bizneslarni boshlash va mavjud korxonalarni kengaytirish imkonini beradi. Bu esa bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sanaladi. Tijorat banklarining moliyaviy resurslari kichik ishlab chiqarish subyektlarini yaratish uchun zarur vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Moliyaviy bozorni rivojlantirish. O'zbekiston moliyaviy bozori to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, tijorat banklarining faoliyati ushbu tizimni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Kreditlash orqali banklar o'rtasida raqobat kuchaymoqda, bu esa moliyaviy xizmatlar sifatini oshiradi va bozorlik sharoitlarni yaxshilaydi.

Eksport salohiyatini oshirish. Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar ishlab chiqaruvchilarga eksport hajmini oshirish va yangi tashqi bozorlarni egallash imkonini yaratmoqda. Bu esa O'zbekistonning global iqtisodiy integratsiyasini kuchaytiradi.

Inflyatsiyani boshqarishda roli. Inflyatsiya darajasini nazorat qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib, tijorat banklari kreditlashda ehtiyotkor siyosat yuritish orqali ortiqcha pul massasining oldini olishda muhim rol o'ynamoqda. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar iqtisodiyotni rivojlantirishda markaziy rol o'ynamoqda. Ular sanoat, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, kichik biznes, eksport va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sish, barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka hissa qo'shmoqda. Mamlakatning moliyaviy tizimi va bank sektori bundan keyin ham iqtisodiy taraqqiyotda strategik rol o'ynashda davom etadi [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy moliyaviy vositalardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Kreditlash jarayoni iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qo'llab-quvvatlaydi, yangi bizneslarni yaratadi, eksport salohiyatini oshiradi va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq, kreditlash tizimini yanada samarali qilish uchun kredit shartlarini soddalashtirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish zarur.

Takliflar:

Kredit foiz stavkalarini pasaytirish va kredit olish shartlarini yengillashtirish lozim. Bu chora-tadbirlar ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari, qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlar hamda innovatsion loyihalar bilan shug'ullanuvchilar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlov sifatida xizmat qiladi. Foiz stavkalarining pasaytirilishi investitsiya faolligini oshiradi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish zarur. Aholi kredit olish va uning shartlari haqida yetarli bilimga ega bo'lishi kerak. Banklar mijozlarga kreditlashning asosiy prinsiplari, foiz stavkalari, kredit muddati va qarzlarni qaytarish shartlari haqida kengroq va tushunarli ma'lumotlar taqdim etishi lozim. Bu esa, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi va moliyaviy intizomni mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu tizimda islohotlarni izchil davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. J. M. Keynes (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
2. J. A. Schumpeter (1912). Theory of Economic Development. Routledge, London.
3. I. O. Davronov. "Role of investment in tourism development", 2020.
4. <https://cbu.uz/ru/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>